



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№8(3)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 138 sahifa,  
24-avgust, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                    |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari .....                    | 10 |
| <b>Sultonov Xaytboy Eraliyevich</b>                                                                                                                                |    |
| Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi .....                                              | 14 |
| <b>Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi</b>                                                                                                                         |    |
| Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....                                                           | 19 |
| <b>Tengelbayeva Dinora Muratovna</b>                                                                                                                               |    |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....                                                | 25 |
| <b>Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna</b>                                                                                                                          |    |
| Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....                       | 30 |
| <b>Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li</b>                                                                                                                       |    |
| Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi..... | 34 |
| <b>K. B. Numanov</b>                                                                                                                                               |    |
| Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari .....                                              | 38 |
| <b>Ismailov Abduvali Abdumalikovich</b>                                                                                                                            |    |
| CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....                         | 45 |
| <b>Ergasheva Feruza Davlatali qizi</b>                                                                                                                             |    |
| Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili .....                                                                             | 48 |
| <b>Xamdanova Muazzamxon Xabibullo qizi</b>                                                                                                                         |    |
| Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari .....                                          | 52 |
| <b>Mamatmurotova Muhlis Kamol qizi</b>                                                                                                                             |    |
| Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi .....                          | 59 |
| <b>Otabayeva Muazzam Abdumajidovna</b>                                                                                                                             |    |
| Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari .....                                                          | 63 |
| <b>Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna</b>                                                                                                                             |    |
| Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari .....                                     | 69 |
| <b>Sharipov Hayotjon Safarovich</b>                                                                                                                                |    |
| "Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish .....                                            | 75 |
| <b>Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi</b>                                                                                                                       |    |
| "Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish .....                                                                                | 79 |
| <b>Baratova Madinaxon Paxridinovna</b>                                                                                                                             |    |
| "Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish .....                                  | 83 |
| <b>Jumayeva Farzona Behzodjon qizi</b>                                                                                                                             |    |
| Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari .....                                                                                    | 87 |
| <b>Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna</b>                                                                                                                             |    |
| Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligi.....               | 92 |
| <b>Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna</b>                                                                                                                              |    |



|                                                                                                                                                                             |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Махалля как гуманистическая воспитательная экосистема: социально-педагогические механизмы модернизации в новом Узбекистане .....                                            | 97  |
| <b>Фадлиева Амина Ильхамовна</b>                                                                                                                                            |     |
| Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tuzilishi va funksional xususiyatlari .....                                                                   | 102 |
| <b>Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li</b>                                                                                                                                    |     |
| Adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari .....                                                                            | 112 |
| <b>Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li</b>                                                                                                                                     |     |
| Raqamli ta'lim muhitida talabalarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari .....                                                       | 116 |
| <b>Xasanov Javohir Muxtorovich</b>                                                                                                                                          |     |
| Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish .....                                        | 125 |
| <b>Malikova Madina Abduraxmon qizi</b>                                                                                                                                      |     |
| Pedagogical and Methodological Possibilities for Developing Students' Critical Thinking Competence in Teaching English Based on the "Project-Based Learning" Approach ..... | 129 |
| <b>Berdiyeva Shakhnoza Kholmakhammatovna</b>                                                                                                                                |     |
| Chekka hisoblash texnologiyasi yordamida aqlli mehmonxonada real-vaqt kayfiyat aniqlash va IoT qurilmalarini avtomatik boshqarish tizimi: Smart mood .....                  | 132 |
| <b>Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li, Botirova Mashhura Tulqin qizi</b>                                                                                                      |     |

# RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

Xasanov Javohir Muxtorovoch

Buxoro davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Raqamli ta'lim resurslarining mazmuniy sifati, muammoli va tadqiqiy topshiriqlar, interfaol muloqot, hamkorlikdagi faoliyat, axborotni tanqidiy baholash, o'qituvchining fasilitatorlik faoliyati hamda refleksiv baholash mazkur kompetensiyani rivojlantiruvchi asosiy omillar sifatida asoslangan. Shuningdek, talabalarning raqamli axborotni izlash, manbalarning ishonchligini tekshirish, dalillarni qiyoslash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, muqobil fikrlarni baholash va asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan. Sun'iy intellekt vositalaridan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanish, media va axborot savodxonligini rivojlantirish, psixologik xavfsiz muloqot muhitini yaratish hamda muntazam qayta aloqani tashkil etishning ahamiyati ochib berilgan. Maqolada raqamli ta'limni tashkil etishda texnologik vositalardan foydalanishning o'zi yetarli emasligi, ularni muammoli, dialogik, tadqiqiy va refleksiv faoliyat bilan uyg'unlashtirish zarurligi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** raqamli ta'lim muhiti, tanqidiy fikrlash, tanqidiy fikrlash kompetensiyasi, pedagogik omillar, muammoli ta'lim, interfaol metodlar, refleksiv baholash, media savodxonlik, axborot savodxonligi, raqamli resurslar, sun'iy intellekt, hamkorlikdagi ta'lim.

**Abstract:** This article provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical factors influencing the development of students' critical thinking competence in a digital learning environment. The content quality of digital educational resources, problem-based and inquiry-based tasks, interactive communication, collaborative activities, critical evaluation of information, the teacher's facilitative role, and reflective assessment are substantiated as the key factors contributing to the development of this competence. The article also examines opportunities for developing students' skills in searching for digital information, verifying the reliability of sources, comparing evidence, identifying cause-and-effect relationships, evaluating alternative viewpoints, and drawing well-founded conclusions. It highlights the importance of the pedagogically appropriate use of artificial intelligence tools, the development of media and information literacy, the creation of a psychologically safe communication environment, and the provision of regular feedback. The article argues that the use of technological tools alone is insufficient for organizing digital education and that such tools must be integrated with problem-based, dialogic, inquiry-based, and reflective activities.

**Key words:** digital learning environment, critical thinking, critical thinking competence, pedagogical factors, problem-based learning, interactive methods, reflective assessment, media literacy, information literacy, digital resources, artificial intelligence, collaborative learning.

**Аннотация:** В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы педагогические факторы, влияющие на формирование компетенции критического мышления у студентов в цифровой образовательной среде. Содержательное качество цифровых образовательных ресурсов, проблемные и исследовательские задания, интерактивное взаимодействие, совместная деятельность, критическая оценка информации, фасилитаторская деятельность преподавателя, а также рефлексивное оценивание обоснованы как основные факторы развития данной компетенции. Кроме того, раскрыты возможности формирования у студентов навыков поиска цифровой информации, проверки надёжности источников, сопоставления аргументов, выявления причинно-следственных связей, оценки альтернативных точек зрения и формулирования обоснованных выводов. Освещено значение педагогически целесообразного использования инструментов искусственного интеллекта, развития медиа- и информационной грамотности, создания психологически безопасной коммуникативной среды и организации систематической обратной связи. В статье обосновано, что одного лишь использования технологических средств при организации цифрового образования недостаточно: необходимо сочетать их с проблемной, диалогической, исследовательской и рефлексивной деятельностью.

**Ключевые слова:** цифровая образовательная среда, критическое мышление, компетенция критического мышления, педагогические факторы, проблемное обучение, интерактивные методы, рефлексивное оценивание, медиаграмотность, информационная грамотность, цифровые ресурсы, искусственный интеллект, совместное обучение.



## KIRISH

Zamonaviy jamiyatning raqamlashtirilishi, internet tarmoqlari, elektron ta'lim platformalari va sun'iy intellekt vositalarining keng qo'llanishi oliy ta'limning mazmuni hamda metodlarini tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi talaba bilimni faqat auditoriyada o'qituvchidan emas, balki elektron kutubxonalar, ijtimoiy tarmoqlar, videoplatfomalari, mobil ilovalar, generativ sun'iy intellekt tizimlari va turli raqamli axborot manbalaridan oladi. Bunday imkoniyatlar bilim olishning tezkorligi va qulayligini oshirishi bilan birga, axborotning ishonchligi, xolisligi va ilmiy asoslanganligini aniqlash bilan bog'liq yangi pedagogik muammolarni ham yuzaga keltiradi.

"Dunyoning bir qator oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari, xususan, Tambov davlat universiteti (Rossiya), Xelsinki universiteti (Finlyandiya), Kaliforniya universiteti (AQSH), Saymon Freyzer universiteti, Britaniya Kolumbiyasi (Kanada), Ryutsu Keizai universiteti (Yaponiya), Sejong universitetida (Janubiy Koreya) olib borilmoqda". Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish asosida ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid tadqiqotlarda qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilgan. Jumladan, o'qish va yozish asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda oliy ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish loyihalari asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ta'sir etuvchi motivlar tizimlashtirilgan (Rossiya).

O'quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish modeli psixologik testlarni yechishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash asosida takomillashtirilgan (Finlyandiya). O'quvchilarning ijtimoiy munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan muammolar yechimini topish ko'nikmalari zamonaviy ta'lim paradigmalaridan foydalanish asosida takomillashtirilgan (AQSH).

Tanqidiy fikrlashni kuzatish, ma'lumotlarni tahlil qilish, mantiqiy tafakkur, aniq dalil va tajribaga asoslangan fikrlash uyg'unligini shakllantirish strategiyalari ishlab chiqilgan (Kanada). Ta'lim jarayonida o'quvchilarning tanqidiy tafakkuri, mantiq, axborot, notiqlik, bilimlar, munosabat va qadriyatlarga oid ko'nikmalarini shakllantirish paradigmalari takomillashtirilgan (Yaponiya).

Fuqarolik axloqini rivojlantirishda raqamli iqtisod talablariga mos sog'lom turmush tarzi, tana va ongni uyg'unlashtirish imkoniyatlarini aniqlash asosida takomillashtirilgan (Janubiy Koreya) [7, 5-b].

O'zbekistonda oliy ta'limni raqamlashtirish, ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim sifatini yaxshilash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish vazifalari belgilangan [1]. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi esa ta'lim va boshqa ijtimoiy sohalarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni nazarda tutadi [2]. Mazkur vazifalarning bajarilishi talabalarning faqat raqamli vositalardan foydalanish malakasini emas, balki raqamli axborotni tanqidiy tahlil qilish va ongli baholash kompetensiyasini ham rivojlantirishni talab qiladi.

Raqamli muhitda axborot hajmining keskin ortishi, turli qarashlarning bir vaqtda taqdim etilishi, yolg'on yoki manipulyativ xabarlarining tarqalishi, algoritmlar orqali saralangan kontent va sun'iy intellekt yaratgan materiallarning ko'payishi talabaning mustaqil hukm chiqarish qobiliyatiga alohida talab qo'ymoqda. Talaba topilgan axborotni tayyor bilim sifatida qabul qilmasdan, uning muallifi, maqsadi, dalillari, manbasi va yaratilish usulini tekshirishi zarur. UNESCO media va axborot savodxonligini insonning o'qigan, eshitgan va o'rgangan axborotini tanqidiy savol ostiga qo'yish imkonini beruvchi kompetensiyalar majmui sifatida baholaydi [3]. Shuning uchun raqamli ta'lim sharoitida axborotdan foydalanish ko'nikmasi uning ishonchligini tekshirish, dalillarni qiyoslash va xolis xulosaga kelish qobiliyati bilan uyg'unlashishi lozim.

Tanqidiy fikrlash tushunchasi ilmiy adabiyotlarda tahlil qilish, talqin etish, baholash, xulosa chiqarish va o'z fikrini nazorat qilish bilan bog'liq murakkab kognitiv faoliyat sifatida izohlanadi. P. Facione rahbarligida amalga oshirilgan Delphi tadqiqotida tanqidiy fikrlash - "maqsadga yo'naltirilgan, o'z-o'zini boshqaruvchi hukm" sifatida ta'riflanib, uning natijasi talqin qilish, tahlil etish, baholash, xulosa chiqarish va o'z qarorini asoslashda namoyon bo'lishi ko'rsatilgan [4]. Ushbu ta'rif tanqidiy fikrlashni faqat kamchilik izlash yoki boshqa fikrni inkor etish deb tushunish noto'g'ri ekanini ko'rsatadi. Tanqidiy fikrlash dalillarni xolis ko'rib chiqish, muqobil nuqtayi nazarlarni hisobga olish, shaxsiy qarashlarni qayta ko'rib chiqish va asoslangan xulosa chiqarishni nazarda tutadi.

"Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi" tushunchasi esa kognitiv ko'nikmalar bilan bir qatorda, talabaning dalillarga ochiqligi, intellektual halolligi, savol berishga moyilligi, muqobil fikrlarni hurmat qilishi va o'z xulosasini qayta ko'rib chiqishga tayyorligini ham qamrab oladi. Demak, mazkur kompetensiya bilim, ko'nikma, qadriyat va shaxsiy munosabatlarning integrativ birligidan iborat. Talaba axborotni tahlil qilish usullarini bilishi mumkin, biroq mavjud dalillarni xolis baholashga intilmasa yoki o'z fikrini mutlaq to'g'ri deb hisoblasa, uning tanqidiy fikrlash kompetensiyasi yetarli darajada shakllanmaydi.

Yevropa Komissiyasining DigComp 3.0 raqamli kompetensiyalar tizimida raqamli manba va kontentning ishonchligini baholash, tegishli hamda keraksiz axborotni farqlash, shuningdek, raqamli materialni yaratgan jarayonlarni tanqidiy tekshirish alohida kompetensiya sifatida belgilangan [5]. Bu tanqidiy fikrlash raqamli savod-



xonlikning qo'shimcha elementi emas, balki uning asosiy tarkibiy qismi ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, sun'iy intellekt yaratgan matn, tasvir va ma'lumotlardan foydalanishda talaba javobning mantiqiyliqi, dalillarning haqiqiyliqi, manbalarning mavjudligi va ehtimoliy algoritmik xatolarni tekshirish imkoniga ega bo'ladi.

Raqamli vositalarning ta'lim jarayonida mavjudligi talabalarning tanqidiy fikrlashini avtomatik ravishda rivojlantirmaydi. Agar raqamli texnologiyalar faqat ma'lumotni ko'rsatish, tayyor javob olish yoki reproduktiv testlarni bajarish uchun qo'llansa, talaba axborotning passiv iste'molchisiga aylanishi mumkin. Aksincha, raqamli resurslar muammoli savollar, tadqiqiy topshiriqlar, munozara, keyslar, manbalarni qiyoslash va refleksiv faoliyat bilan birlashtirilganda yuqori darajadagi fikrlash jarayonlarini faollashtiradi. Oliy ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga oid tizimli tadqiqotlar faol ta'lim, muammoga asoslangan ta'lim, keys-stadi, simulyatsiya, konseptual xaritalash va refleksiv yozuv kabi strategiyalarning pedagogik imkoniyatlarini ko'rsatmoqda<sup>[6]</sup>.

Mazkur nuqtayi nazardan, raqamli ta'lim muhitida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish o'zaro bog'langan pedagogik omillar tizimini talab qiladi. Raqamli resurslarning ilmiy va mazmuniy sifati, muammoli-tadqiqiy topshiriqlarning mavjudligi, axborot manbalarini qiyoslash, interfaol muloqot, hamkorlikdagi faoliyat, o'qituvchining fasilitatorlik pozitsiyasi, psixologik xavfsiz muhit, mezonli baholash, muntazam qayta aloqa va refleksiya shunday omillar jumlasiga kiradi. Ushbu omillar uyg'unlashganda talaba tayyor xulosani takrorlashdan axborotni mustaqil izlash, savol qo'yish, dalillarni tekshirish va asoslangan pozitsiya ishlab chiqishga o'tadi.

Raqamli muhitda talabalarning roli ham yangicha mazmun kasb etadi. Talaba axborotning yagona manbasi emas, balki uning izlanish faoliyatini tashkil etuvchi, muammoli savollarni qo'yuvchi, ishonchli manbalarni tanlash mezonlarini tushuntiruvchi va fikrlash jarayoniga rivojlantiruvchi qayta aloqa beruvchi fasilitator sifatida faoliyat yuritadi. Talabaga tayyor javobni taqdim etish o'rniga "Ushbu axborot qaysi dalilga asoslangan?", "Manbaning ishonchligini qanday tekshirish mumkin?", "Muallif fikriga qarama-qarshi qanday nuqtayi nazarlar mavjud?" kabi savollarni qo'yish uning tahliliy va refleksiv faoliyatini kuchaytiradi.

Shunday qilib, raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish texnik vositalardan foydalanishni emas, balki raqamli texnologiyalar asosida maqsadli pedagogik faoliyatni loyihalashtirishni anglatadi. Muammoning dolzarbligi raqamli axborotni izlash va qayta ishlash bilan cheklanmay, uning ishonchligini baholay oladigan, yolg'on va xolis axborotni farqlaydigan, sun'iy intellekt natijalarini tekshiradigan hamda dalillarga asoslangan mustaqil qaror qabul qiladigan mutaxassislarni tayyorlash zarurati bilan belgilanadi. Mazkur maqolaning maqsadi raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantiruvchi pedagogik omillarni aniqlash, ularning mazmuni va o'zaro aloqadorligini tahlil qilish hamda ta'lim jarayonida samarali qo'llash imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish masalalari pedagogika, psixologiya, raqamli didaktika, media savodxonlik va zamonaviy ta'lim texnologiyalariga oid tadqiqotlarda keng yoritilgan. Raqamli ta'lim muhiti talabalarga katta hajmdagi axborotdan foydalanish, turli manbalarni taqqoslash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish hamda o'z nuqtayi nazarini asoslash uchun keng imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, axborotning haddan tashqari ko'pligi, ishonchsiz manbalar, noto'g'ri ma'lumotlar, manipulyativ kontent va tayyor raqamli materiallardan nazoratsiz foydalanish talabalarda axborotni tanqidiy baholash ko'nikmalarini rivojlantirish zaruratini kuchaytiradi.

"Tanqidiy tafakkurning intellektual ildizlari miloddan avvalgi V asrda yashagan qadimgi yunon faylasufi Suqrotning ta'lim amaliyoti va qarashlariga borib taqaladi. Suqrot odamlar o'z e'tiqodlari va taxminlarini doimiy ravishda shubha ostiga qo'yishlari, dunyoni to'g'riroq va nozikroq tushunish uchun boshqalar bilan muloqot va munozaralarda qatnashishlari kerak", deb hisoblardi<sup>[7, 13-b.]</sup>.

Asrlar davomida Frensis Bekon, Rene Dekart, Jon Lokk, Immanuil Kant kabi mutafakkirlar Suqrot g'oyalari asosanib, o'zlarining tanqidiy tafakkurga oid nazariyalarini ishlab chiqdilar. Bugungi kunda tanqidiy tafakkur shaxsda bo'lishi kerak bo'lgan zaruriy fazilat sifatida keng e'tirof etilgan va ko'plab ta'lim kontekstlarida, boshlang'ich sinf o'quvchilaridan boshlab oliy ta'lim muassasasi talabalarigacha, uzviy va uzluksiz rivojlantirishi muhim ahamiyat kasb etadi<sup>[7, 13-b.]</sup>.

J. Dyui tanqidiy fikrlashni muammoni anglash, mavjud dalillarni tekshirish va asoslangan xulosaga kelishga yo'naltirilgan refleksiv tafakkur jarayoni sifatida tavsiflaydi. Uning fikriga ko'ra, ta'lim jarayonida talabaga tayyor bilimlarni yetkazish bilan cheklanib qolmasdan, uni savol qo'yish, muammoni aniqlash, taxminlarni tekshirish va qarorlarini asoslashga o'rgatish lozim. Mazkur yondashuv raqamli ta'lim muhitida muammoli topshiriqlar, virtual munozaralar, elektron loyihalar va mustaqil axborot izlash faoliyati orqali amalga oshirilishi mumkin.

R. Ennis tanqidiy fikrlashni nimaga ishonish yoki qanday harakat qilish haqida asoslangan qaror qabul qilishga yo'naltirilgan oqilona va refleksiv fikrlash sifatida izohlaydi. R. Paul va L. Elder esa tanqidiy fikrlash-



ning asosiy vazifasi tafakkurning aniqligi, mantiqiyiligi, izchilligi, xolisligi va dalillanganligini ta'minlashdan iborat ekanini ta'kidlaydilar. Ularning yondashuvida talaba o'z fikrlash jarayonini nazorat qilishi, dalillarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi, turli nuqtayi nazarlarni qiyoslashi va xulosalarining asoslanganligini tekshirishi zarur.

D. Halpern tanqidiy fikrlashni kutilgan natijaga erishish ehtimolini oshiradigan kognitiv strategiya va ko'nikmalar majmuasi sifatida baholaydi. Unga ko'ra, ushbu ko'nikmalar muammoni aniqlash, axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va maqbul qaror qabul qilishda namoyon bo'ladi. Raqamli ta'lim sharoitida mazkur ko'nikmalar elektron manbalar bilan ishlash, internetdagi ma'lumotlarning ishonchililigi tekshirish, raqamli dalillarni taqqoslash va virtual muammoli vaziyatlarga yechim topish orqali rivojlantiriladi.

P. Facionening tadqiqotlarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasining tarkibiy qismlari sifatida interpretatsiya, tahlil, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish va o'z faoliyatini nazorat qilish ko'rsatiladi. Ushbu komponentlar talabani raqamli axborotni mazmunan anglash, asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotlarni ajratish, muallif pozitsiyasini aniqlash, dalillarning ishonchililigi baholash, mustaqil xulosa chiqarish hamda qarorlarini asoslab berish qobiliyatini ifodalaydi.

Ilmiy manbalar tahlili raqamli texnologiyalar tanqidiy fikrlashni o'z-o'zidan shakllantirmasligini ko'rsatadi. Ta'lim platformalari, elektron darsliklar, multimedia materiallari, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, sun'iy intellekt vositalari va onlayn muloqot xizmatlarining pedagogik samaradorligi ulardan qanday metodik maqsadda foydalanilishiga bog'liq. Agar raqamli vositalar faqat tayyor axborotni namoyish etish yoki takrorlash uchun qo'llansa, talabalar faoliyati reproduktiv darajada qolib ketishi mumkin. Aksincha, ular muammoli topshiriqlar, tadqiqot loyihalari, munozaralar, keyslar, axborot manbalarini qiyoslash va dalillangan xulosa chiqarishga yo'naltirilsa, tanqidiy fikrlash kompetensiyasining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda axborot va media savodxonligi alohida ahamiyatga ega. Talaba internet manbasining muallifi, maqsadi, yangilangan sanasi, dalillar bazasi va boshqa manbalar bilan muvofiqligini tekshira olishi lozim. Shuningdek, fakt va fikrni farqlash, manipulyativ usullarni aniqlash, statistik ma'lumotlarni to'g'ri talqin qilish, tasvir va videolarning haqiqiyiligi tekshirish hamda sun'iy intellekt yaratgan javoblarga tanqidiy munosabat bildirish zamonaviy tanqidiy fikrlashning muhim ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Raqamli ta'lim muhitidagi hamkorlikka asoslangan faoliyat ham tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Onlayn munozaralar, forumlar, vebinarlar, guruhli loyihalar va bulutli hujjatlar bilan birgalikda ishlash talabalarga o'z fikrini ifodalash, boshqalarning nuqtayi nazarini tinglash, turli qarashlarni qiyoslash va umumiy qarorga kelish imkonini beradi. Bunday faoliyat argument keltirish, qarshi dalillarni tahlil qilish, savol berish, muloqot madaniyatiga rioya etish va jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, raqamli ta'lim jarayoni noto'g'ri tashkil etilganda tayyor javoblarga qaramlik, yuzaki o'qish, axborotni tekshirmasdan qabul qilish, akademik halollik talablarining buzilishi, diqqatning chalg'ishi va mustaqil fikrlash faolligining pasayishi kuzatilishi mumkin. Shuning uchun raqamli topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, axborot manbalarini tekshirish mezonlarini belgilash, talabadan xulosalarini dalillar bilan asoslashni talab qilish, muntazam qayta aloqa berish va refleksiv faoliyatni tashkil etish asosiy pedagogik shartlar hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy-tahliliy metodologiyadan foydalanildi. Mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik, metodik va raqamli didaktikaga doir adabiyotlar o'rganildi, ulardagi yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi hamda mavjud ilmiy xulosalar tizimlashtirildi. Raqamli ta'lim vositalarining talabalarning axborotni tahlil qilish, baholash, muammoni hal etish va asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmalariga ta'siri pedagogik jihatdan tavsiflandi.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, kompetensiyaviy, muammoli, tizimli va raqamli-didaktik yondashuvlar tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar talabani tayyor bilimni qabul qiluvchi obyekt sifatida emas, balki axborotni mustaqil izlaydigan, tahlil qiladigan, baholaydigan, yangi bilim yaratadigan va o'z qarorlarini asoslaydigan faol subyekt sifatida baholash imkonini beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talabalarning individual qobiliyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, o'rganish sur'ati va raqamli vositalardan foydalanish tajribasini hisobga olishni nazarda tutadi. Faoliyatga asoslangan yondashuv tanqidiy fikrlashning amaliy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, mustaqil izlanish va refleksiya jarayonida shakllanishini ta'minlaydi. Kompetensiyaviy yondashuv esa o'zlashtirilgan bilimlarni turli vaziyatlarda qo'llash, dalillarni baholash va asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatiga e'tibor qaratadi.

Muammoli ta'lim yondashuvi talabalarga tayyor yechimi mavjud bo'lmagan vaziyatlarni taqdim etish, muammoni mustaqil aniqlash, taxminlarni ilgari surish, dalillar to'plash va muqobil yechimlarni baholashga asoslanadi. Tizimli yondashuv tanqidiy fikrlash kompetensiyasini bilim, ko'nikma, munosabat, motivatsiya va refleksiyani o'zaro bog'liq birligi sifatida o'rganishga imkon beradi. Raqamli-didaktik yondashuv esa elek-



tron resurslar, ta'lim platformalari va interaktiv vositalarni aniq pedagogik maqsadlar asosida tanlash hamda qo'llashni nazarda tutadi.

Raqamli ta'lim jarayonini tashkil etish metodologiyasi individuallashtirish, interfaollik, muammolilik, izchillik, bosqichma-bosqichlik, hamkorlik, ongli ishtirok, akademik halollik va muntazam qayta aloqa tamoyillariga asoslandi. Ta'lim topshiriqlari oddiy axborotni tushunishdan boshlab, uni tahlil qilish, turli manbalarni qiyoslash, dalillarni baholash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va mustaqil xulosa chiqarishgacha bo'lgan bosqichlarda tashkil etildi.

Tanqidiy fikrlashning motivatsion va kommunikativ jihatlarini aniqlashda talabani topshiriqqa qiziqishi, mustaqil izlanishga intilishi, savol berish faolligi, onlayn munozaralardagi ishtiroki, o'z fikrini erkin ifodalashi, boshqalarning fikriga hurmat bilan munosabatda bo'lishi va jamoaviy qaror qabul qilishdagi faolligiga e'tibor qaratildi. Refleksiv ko'rsatkichlar sifatida talabani o'z fikrlash jarayonini tahlil qilishi, yo'l qo'ygan xatolarini aniqlashi, tanlagan yechimining afzallik va cheklovlarini baholashi hamda keyingi faoliyat yo'nalishini belgilashi olindi.

Mazkur metodologiya raqamli ta'lim muhitining talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasiga ta'sirini faqat o'zlashtirilgan bilimlar miqdori orqali emas, balki axborotni izlash, tahlil qilish, baholash, asoslangan xulosa chiqarish, muammoni hal etish va refleksiya ko'nikmalari bilan o'zaro bog'liq holda o'rganish imkonini beradi. Shuningdek, u raqamli ta'lim mazmunini talabalarning individual ehtiyojlariga moslashtirish, interaktiv va muammoli topshiriqlardan samarali foydalanish hamda mustaqil va tanqidiy fikrlovchi mutaxassisni tayyorlashning pedagogik shartlarini aniqlashga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy adabiyotlar, xalqaro kompetensiya tizimlari va normativ-huquqiy hujjatlarning nazariy hamda sifat kontent-tahlili natijasida raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasi o'zaro bog'langan kognitiv, axborot-tahliliy, kommunikativ-argumentativ, refleksiv va qadriyatli-motivatsion komponentlardan tashkil topishi aniqlandi. Mazkur kompetensiya talabani raqamli axborotni topishi bilangina emas, balki manbalar ishonchligini tekshirishi, dalillarni qiyoslashi, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashi, muqobil qarashlarni baholashi va asoslangan xulosa chiqarishida namoyon bo'ladi.

P. Facione tomonidan belgilangan talqin qilish, tahlil etish, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalari tanqidiy fikrlash kompetensiyasining kognitiv asosini tashkil etishi tasdiqlandi [4]. Biroq raqamli muhitda mazkur ko'nikmalar media-axborot savodxonligi, manbani tekshirish, algoritmik natijalarni baholash va sun'iy intellekt yaratgan kontentga tanqidiy munosabat bilan to'ldirilishi zarurligi aniqlandi.

Tahlil natijasida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantiruvchi pedagogik omillar beshta o'zaro bog'langan guruhga ajratildi (1-jadvalga qarang).

**1-jadval: Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantiruvchi pedagogik omillar**

| Omillar guruhi                | Asosiy pedagogik omillar                                                                                | Talaba faoliyatida namoyon bo'lishi                                                               |
|-------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Mazmuniy-texnologik</b>    | Ishonchli raqamli resurslar, turli nuqtayi nazarlar, autentik materiallar, axborotning ilmiyligi        | Axborotni tanlash, manbalarni tekshirish va ishonchli hamda ishonchsiz ma'lumotni farqlash        |
| <b>Muammoli-faoliyatli</b>    | Muammoli savollar, keyslar, tadqiqiy topshiriqlar, loyiha va simulyatsiyalar                            | Muammoni aniqlash, gipoteza ilgari surish, dalil izlash va muqobil yechimlar ishlab chiqish       |
| <b>Kommunikativ-hamkorlik</b> | Munozara, debat, guruhli tahlil, o'zaro baholash va dialogik ta'lim                                     | Fikrni dalillash, boshqa qarashlarni tinglash, e'tiroz bildirish va umumiy xulosaga kelish        |
| <b>Tashkiliy-pedagogik</b>    | O'qituvchining fasilitatorligi, differensial topshiriqlar, psixologik xavfsiz muhit va pedagogik ko'mak | Mustaqil fikr bildirish, savol berish, xatoni tan olish va o'z pozitsiyasini qayta ko'rib chiqish |
| <b>Baholash-refleksiv</b>     | Mezonli baholash, rivojlantiruvchi qayta aloqa, o'z-o'zini va tengdoshini baholash                      | Fikrlash jarayonini tahlil qilish, dalillardagi kamchiliklarni aniqlash va xulosani tuzatish      |

Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalarning tanqidiy fikrlashi raqamli materiallarning ko'pligiga emas, balki ularning mazmuniy va ilmiy sifatiga bog'liq. Agar talabalarga faqat bitta manba yoki tayyor xulosa taqdim etilsa, ularning qiyoslash va baholash faoliyati cheklanadi. Shu sababli bir muammo bo'yicha ilmiy maqola, statistik ma'lumot, media xabari, videomaterial va sun'iy intellekt yaratgan javobni birgalikda tahlil qilish samarali yondashuv sifatida belgilandi.



Bunday topshiriqlarda talaba axborotning muallifi kim, material qanday maqsadda yaratilgan, fikr qaysi dalillarga asoslangan, manbada bir tomonlama yondashuv mavjudmi, keltirilgan ma'lumotni boshqa manbalar tasdiqlaydimi, fakt va muallif talqini bir-biridan qanday farqlanadi singari savollarga javob izlashi lozim. Natijada talabalarda axborotni passiv qabul qilishdan dalillarga asoslangan holda baholashga o'tish kuzatilishi nazariy jihatdan asoslandi.

Muammoli vaziyatlar, ochiq savollar, keys-stadi, loyiha va tadqiqiy topshiriqlar tanqidiy fikrlashni faollashtiruvchi yetakchi pedagogik omillar sifatida aniqlandi. Yechimi oldindan ma'lum bo'lgan reproduktiv topshiriqlar talabani xotirasi va qayta ifodalash qobiliyatini tekshiradi, biroq muqobil yechimlar talab qiladigan topshiriqlar uning tahlil, baholash va qaror qabul qilish faoliyatini kuchaytiradi.

Oliy ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha tizimli sharh natijalarida ham muammoga asoslangan ta'lim, keys-stadi, simulyatsiya, refleksiv yozuv, konseptual xaritalash va faol ta'lim metodlarining pedagogik imkoniyatlari qayd etilgan [6]. Shuning uchun raqamli topshiriqlar tayyor javobni topishga emas, balki dalillar asosida bir nechta yechimni qiyoslashga yo'naltirilishi zarur.

Tanqidiy fikrlash faqat individual aqliy faoliyat emas, balki dialog va ijtimoiy hamkorlik jarayonida rivojlanadigan kompetensiya ekanligi aniqlandi. Munozara va debatlarida talaba o'z fikrini dalillash, qarama-qarshi pozitsiyani tushunish, dalillardagi kuchli va zaif jihatlarni aniqlash hamda xulosasini qayta ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mezonli va refleksiv baholash tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning zarur omili sifatida aniqlandi. Faqat yakuniy javobni baholash talabani mazkur xulosaga qanday kelganini ko'rsatmaydi. Shu sababli baholashda manba tanlash, dalil sifati, fikrning mantiqiyliqi, qarshi dalillarni hisobga olish va xulosaning asoslanganligi kabi ko'rsatkichlar e'tiborga olinishi kerak. Tanqidiy fikrlash faoliyatini baholash uchun quyidagi mezonlar ishlab chiqildi. (2-jadvalga qarang)

**2-jadval: Tanqidiy fikrlash faoliyatini baholash**

| Mezon                               | Ko'rsatkichlar                                                        |
|-------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|
| <b>Muammoni anglash</b>             | Muammoni aniq ifodalash, asosiy va ikkilamchi masalalarni ajratish    |
| <b>Axborotni tahlil qilish</b>      | Fakt, fikr, taxmin va manipulyativ axborotni farqlash                 |
| <b>Manbani baholash</b>             | Muallif, nashr, sana, dalil va havolalarning ishonchligini tekshirish |
| <b>Dalillash</b>                    | Fikrni ilmiy ma'lumot va mantiqiy asoslar bilan izohlash              |
| <b>Muqobil qarashlarni baholash</b> | Qarama-qarshi fikrlarni xolis tahlil qilish                           |
| <b>Xulosa chiqarish</b>             | Dalillarga mos, mantiqiy va asoslangan xulosa shakllantirish          |
| <b>Refleksiya</b>                   | O'z fikridagi kamchiliklarni anglash va xulosani qayta ko'rib chiqish |

Sun'iy intellekt vositalari individual tushuntirish, g'oya yaratish, savollar tuzish va tezkor qayta aloqa berishda didaktik imkoniyatlarga ega. Shu bilan birga, sun'iy intellekt javoblari faktik xatolar, soxta havolalar, bir tomonlama talqin yoki yuzaki umumlashtirishlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Shuning uchun AI natijasini tayyor va mutlaq to'g'ri javob sifatida qabul qilmaslik tanqidiy fikrlash kompetensiyasining yangi ko'rsatkichi sifatida belgilandi.

Talabalar AI yaratgan javobni kamida ikki ishonchli manba bilan tekshirishi, undagi fakt va talqinlarni ajratishi, foydalanilgan dalillarni aniqlashi hamda javobning kuchli va zaif tomonlarini yozma ravishda asoslab berishi maqsadga muvofiq. Bunday faoliyat sun'iy intellektni talaba o'rniga fikrlaydigan vositadan uning fikrlashini tekshiradigan va chuqurlashtiradigan pedagogik vositaga aylantiradi.

Umumlashtirilgan natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim muhitida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish texnologik vositalarning o'ziga emas, balki ularning muammoli, tadqiqiy, dialogik va refleksiv faoliyat bilan pedagogik jihatdan uyg'unlashtirilishiga bog'liq. Raqamli resurslarning sifati, talabani faol va hamkorlikdagi ishtiroki, o'qituvchining fasilitatorlik faoliyati, manbalarni tanqidiy baholash, mezonli qayta aloqa va psixologik xavfsiz muhit birgalikda ta'minlangandagina tanqidiy fikrlashning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

Mazkur nazariy-tahliliy va sifat yondashuviga asoslanib, raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantiruvchi pedagogik omillarni aniqlash, tasniflash va ularning o'zaro aloqadorligini ochib berishga yo'naltirildi. Tadqiqot obyekti sifatida raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish jarayoni, tadqiqot predmeti sifatida esa mazkur jarayonning mazmuni, pedagogik omillari, metodlari, vositalari va tashkiliy-didaktik shartlari belgilandi.

Tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqishda adabiyotlar sharhidan mustaqil ilmiy tadqiqot metodi sifatida foydalanildi. H. Snyder adabiyotlar sharhini muayyan sohadagi tarqoq ilmiy bilimlarni aniqlash, baholash va yaxlit nazariy xulosalarga birlashtirish imkonini beruvchi metodologiya sifatida tavsiflaydi. Muallifning ta'kidlashicha,

an'anaviy adabiyotlar sharhi aniq metodologiyasiz olib borilsa, uning ilmiy ishonchliligi va to'liqligi bo'yicha savollar yuzaga kelishi mumkin<sup>[8]</sup>. Shu sababli mazkur tadqiqotda manbalarni izlash, tanlash, guruhlash va tahlil qilish jarayonlari oldindan belgilangan mezonlar asosida amalga oshirildi.

Tizimli yondashuv. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi alohida kognitiv ko'nikma emas, balki bilim, tahliliy faoliyat, refleksiya, qadriyat, shaxsiy munosabat va mustaqil qaror qabul qilishning o'zaro bog'langan tizimi sifatida o'rganildi. Raqamli resurs, pedagogik topshiriq, o'qituvchi faoliyati, talaba faolligi, baholash va qayta aloqa mazkur tizimning o'zaro ta'sir etuvchi tarkibiy qismlari sifatida tahlil qilindi.

Kompetensiyaviy yondashuv. Tanqidiy fikrlash natijasi talabani nazariy bilimlarni takrorlashi bilan emas, balki raqamli axborotni izlash, manbalarni tekshirish, dalillarni qiyoslash, muqobil fikrlarni baholash va asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatlari orqali belgilandi. P. Facione tomonidan tanqidiy fikrlashning talqin qilish, tahlil etish, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish va o'z-o'zini nazorat qilish kabi kognitiv tarkibiy qismlari ajratilgan<sup>[4]</sup>. Mazkur komponentlar pedagogik omillarni aniqlashning nazariy mezonlari sifatida qabul qilindi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv. Talabani tanqidiy fikrlashi tayyor axborotni qabul qilish jarayonida emas, balki muammoni aniqlash, savol qo'yish, axborot izlash, dalillarni tekshirish, munozara qilish va refleksiv xulosa chiqarish faoliyatida shakllanishi nazarda tutildi. Shu sababli muammoli ta'lim, keys-stadi, loyiha, tadqiqiy topshiriq, debat va refleksiv yozuv kabi metodlarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi.

Konstruktivistik yondashuv. Talaba bilimning passiv qabul qiluvchisi emas, balki raqamli axborot, shaxsiy tajriba va hamkorlikdagi muloqot asosida bilimni mustaqil quruvchi faol subyekt sifatida baholandi. Bunda o'qituvchi tayyor xulosani yetkazuvchi emas, balki muammoli vaziyatni yaratuvchi, savollar orqali fikrlashni yo'naltiruvchi va rivojlantiruvchi qayta aloqa beruvchi fasilitator vazifasini bajaradi.

Media va axborot savodxonligi yondashuvi. Raqamli axborot manbalarining muallifi, maqsadi, dalillari va ishonchliligini aniqlash tanqidiy fikrlashning muhim sharti sifatida olindi. UNESCO media va axborot savodxonligi shaxsga o'qilgan, eshitilgan va o'rganilgan ma'lumotlarni tanqidiy savol ostiga qo'yish imkonini berishini qayd etadi<sup>[3]</sup>. DigComp 3.0 tizimida ham raqamli axborot va uni yaratgan jarayonlarning ishonchliligini tanqidiy baholash mustaqil raqamli kompetensiya sifatida belgilangan<sup>[5]</sup>.

Tadqiqotning manbalar bazasini tanqidiy fikrlash, raqamli ta'lim, media-axborot savodxonligi, sun'iy intellekt va interfaol o'qitishga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar, metodik materiallar hamda milliy va xalqaro tashkilotlarning konseptual hujjatlari tashkil etdi. Zamonaviy tendensiyalarni aniqlashda, asosan, so'nggi yillarda e'lon qilingan manbalarga ustuvorlik berildi. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlashning konseptual asoslarini ochib beruvchi P. Facione kabi olimlarning fundamental tadqiqotlari ham tahlil doirasiga kiritildi.

Nazariy tahlil metodi orqali tanqidiy fikrlash, tanqidiy fikrlash kompetensiyasi, raqamli ta'lim muhiti va pedagogik omil tushunchalarining mazmuni o'rganildi. Turli mualliflarning konseptual qarashlaridagi umumiy va farqli jihatlar aniqlanib, tadqiqot uchun asosiy ilmiy tushunchalar aniqlashtirildi.

Hujjatlar tahlili metodi yordamida milliy strategiyalar, normativ-huquqiy hujjatlar, UNESCO tavsiyalari va Yevropa Komissiyasining raqamli kompetensiyalar tizimi o'rganildi.

G. Bowen hujjatlar tahlili "bosma va elektron hujjatlarni ko'rib chiqish yoki baholashning tizimli jarayoni" sifatida ta'riflaydi [9]. Ushbu metod rasmiy hujjatlarda tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik va axborotni baholashga qo'yilgan talablarni aniqlash imkonini berdi.

Sifat kontent-tahlili metodi orqali tanlangan ilmiy manbalardagi mazmuniy birliklar ajratildi. P. Mayring sifat kontent-tahlilini matnlarni oldindan belgilangan qoidalar va kategoriyalar asosida izchil o'rganishga imkon beruvchi tizimli metod sifatida asoslaydi<sup>[10]</sup>. Tadqiqot davomida "raqamli resurs", "muammoli topshiriq", "axborot ishonchliligi", "interfaol muloqot", "hamkorlik", "fasilitatorlik", "refleksiya", "baholash", "qayta aloqa" va "sun'iy intellekt" kabi mazmunli birliklar kodlandi.

Tematik tahlil metodi pedagogik omillarni mazmungan yaqin guruhlariga birlashtirish uchun qo'llanildi. V. Braun va V. Clarke tematik tahlilni sifat ma'lumotlaridagi takrorlanuvchi mazmuniy qonuniyat va mavzularni aniqlashga imkon beruvchi nazariy jihatdan moslashuvchan metod sifatida tavsiflaydi<sup>[11]</sup>. Tematik tahlil manbalar mazmuni bilan tanishish, muhim ilmiy fikr va tushunchalarni dastlabki kodlash, mazmungan yaqin kodlarni birlashtirish, pedagogik omillarga tegishli mavzularni shakllantirish, mavzularni qayta ko'rib chiqish va aniqlashtirish, omillarning mazmuni va o'zaro bog'liqligini izohlash, umumlashtirilgan nazariy xulosalarni ishlab chiqish ketma-ketligida amalga oshirildi.

Qiyosiy tahlil metodi orqali milliy va xalqaro hujjatlar, turli pedagogik konsepsiyalar hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari o'zaro taqqoslandi. Ushbu metod raqamli ta'limda qo'llanadigan pedagogik omillarning umumiy va o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini berdi.

Sintez va umumlashtirish metodlari asosida turli manbalarda qayd etilgan ilmiy qarashlar yagona pedagogik tizimga keltirildi. Natijada tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi omillar mazmuniy, faoliyatli, kommunikativ, tashkiliy, texnologik va refleksiv guruhlariga ajratildi. Ilmiy manbalar mazmunini kodlash va guruhlash natijasida quyidagi asosiy tahlil kategoriyalari belgilandi (3-jadvalga qarang).



3-jadval: Ilmiy manbalarining qiyosiy tahlili

| Tahlil kategoriyasi                             | Mazmuni                                                                                 |
|-------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Raqamli resurslarning sifati</b>             | Axborotning ilmiyligi, ishonchliligi, dolzarbligi va talaba darajasiga muvofiqligi      |
| <b>Muammoli-tadqiqiy faoliyat</b>               | Savol qo'yish, muammoni aniqlash, taxmin ishlab chiqish va dalil izlash                 |
| <b>Axborotni tanqidiy baholash</b>              | Manba, muallif, maqsad, dalil va xulosalarning ishonchliligini tekshirish               |
| <b>Interfaol muloqot</b>                        | Munozara, debat, savol-javob va muqobil fikrlarni muhokama qilish                       |
| <b>Hamkorlikdagi faoliyat</b>                   | Guruhda dalillarni qiyoslash, vazifalarni taqsimlash va umumiy xulosa chiqarish         |
| <b>O'qituvchining fasilitatorligi</b>           | Talabani izlanish va fikrlash jarayonini savol, ko'mak va qayta aloqa orqali boshqarish |
| <b>Refleksiv baholash</b>                       | Talabani fikrlash yo'li, dalillari va xulosalarini qayta ko'rib chiqishi                |
| <b>Media-axborot savodxonligi</b>               | Yolg'on, manipulyativ va bir tomonlama axborotni aniqlash                               |
| <b>Sun'iy intellektdan tanqidiy foydalanish</b> | AI natijalarini tekshirish, xatolarini aniqlash va axloqiy me'yorlarga rioya qilish     |
| <b>Psixologik xavfsizlik</b>                    | Talabani savol berish, e'tiroz bildirish va xato qilishdan qo'rqmasligi                 |

Mazkur kategoriyalarni ajratishda oliy ta'limda tanqidiy fikrlashga oid tizimli sharh natijalari ham hisobga olindi. P. Andreucci-Annunziata va hammualliflar faol ta'lim metodlari, muammoga asoslangan ta'lim, keystadi, simulyatsiya, refleksiv yozuv va konseptual xaritalash tanqidiy fikrlashni qo'llab-quvvatlovchi strategiyalar qatoriga kirishini ko'rsatadilar [6].

Tadqiqot xulosalarining ishonchliligini oshirish maqsadida manbalar triangulyatsiyasi tamoyilidan foydalanildi. Bir pedagogik omilga oid xulosalar ilmiy maqolalar, xalqaro kompetensiya tizimlari va milliy normativ-huquqiy hujjatlardagi qarashlar bilan o'zaro solishtirildi. Tahlil kategoriyalarining mazmuni oldindan belgilandi, bir-biriga yaqin tushunchalar aniqlashtirildi va umumiy nazariy tizimga keltirildi.

Shuningdek, pedagogik omillarni ajratishda omilning talabani tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarish faoliyatiga bevosita ta'siri, omilning pedagog tomonidan loyihalashtirilishi yoki boshqarilishi mumkinligi, omilning raqamli ta'lim sharoitida muntazam va qayta qo'llanish imkoniyati singari mezonlar asosida qilib olindi.

Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega bo'lgani sababli undagi xulosalar statistik umumlashtirishni emas, balki o'rganilgan ilmiy manbalar asosida pedagogik omillarning mazmuni va o'zaro bog'liqligini konseptual tushuntirishni nazarda tutadi. Kelgusida ushbu omillarning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov ishlari, talabalar diagnostikasi, kuzatish, so'rovnoma va matematik-statistik tahlil orqali empirik tekshirish maqsadga muvofiq.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli ta'lim muhitida talabalarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy oliy ta'limning muhim pedagogik vazifalaridan biridir. Mazkur kompetensiya raqamli axborotni topish bilan cheklanmay, uning ishonchliligini tekshirish, fakt va fikrni farqlash, dalillarni qiyoslash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, muqobil qarashlarni baholash hamda asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini qamrab oladi. Shuning uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'zi tanqidiy fikrlashni rivojlantirmaydi; ularning pedagogik maqsad, muammoli vaziyat va faol o'quv topshiriqlari bilan uyg'unlashtirilishi zarur.

Tadqiqot natijasida raqamli resurslarning mazmunini va ilmiy sifati, muammoli-tadqiqiy topshiriqlar, axborot manbalarini tanqidiy baholash, interfaol muloqot, hamkorlikdagi faoliyat, o'qituvchining fasilitatorlik pozitsiyasi, psixologik xavfsiz muhit, mezonli baholash va refleksiv qayta aloqa tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantiruvchi asosiy pedagogik omillar sifatida belgilandi. Mazkur omillarning tizimli qo'llanishi talabani tayyor axborotning passiv iste'molchisidan mustaqil savol qo'yuvchi, dalillarni tekshiruvchi, fikrini asoslovchi va o'z xulosasini qayta ko'rib chiqishga tayyor faol ta'lim subyektiga aylantiradi.

Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishda ham tanqidiy va axloqiy yondashuv ustuvor bo'lishi lozim. Talaba AI yaratgan javoblarni mutlaq to'g'ri axborot sifatida qabul qilmasdan, ularni ishonchli manbalar bilan solishtirishi, faktik va mantiqiy xatolarini aniqlashi hamda foydalanilgan ma'lumotlarni tekshirishi zarur. O'qituvchi esa tayyor bilimni yetkazuvchi emas, balki talabani izlanishi, savol qo'yishi, dalillashi va refleksiyasini boshqaruvchi fasilitator vazifasini bajarishi kerak.

Shunday qilib, raqamli ta'lim muhitida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini samarali shakllantirish mazmunini, faoliyatli, kommunikativ, texnologik va refleksiv omillarning o'zaro uyg'unligiga bog'liq. Oliy ta'lim amaliyotida muammoga asoslangan ta'lim, keystadi, debat, loyiha, manbalarni qiyosiy tahlil qilish, refleksiv yozuv va sun'iy intellekt natijalarini tekshirishga yo'naltirilgan topshiriqlarni kengaytirish maqsadga muvofiq. Kelgusida aniqlangan pedagogik omillarning samaradorligini tajriba-sinov ishlari, diagnostik mezonlar va matematik-statistik tahlil orqali empirik tekshirish zarur.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi.
3. UNESCO. (2017). Media and Information Literacy: A Critical Approach to Literacy in the Digital World.
4. Facione, P. A. (1990). Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction. American Philosophical Association, Delphi Report.
5. European Commission, Joint Research Centre. (2025). DigComp 3.0: The Digital Competence Framework for Citizens.
6. Andreucci-Annunziata, P. et al. (2023). Conceptualizations and Instructional Strategies on Critical Thinking in Higher Education: A Systematic Review of Systematic Reviews. *Frontiers in Education*, 8, 1141686.v
7. Akramova Gulbahor Renatovna. O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish asosida ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash tizimini takomillashtirish. 13.00.01-Ped nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi. p.f.d (DSc). -T.: 2023-yil. 236-bet.
8. Snyder, H. (2019). Literature Review as a Research Methodology: An Overview and Guidelines. *Journal of Business Research*, 104, 333–339.
9. Bowen, G. A. (2009). Document Analysis as a Qualitative Research Method. *Qualitative Research Journal*, 9(2), 27-40.
10. Mayring, P. (2014). *Qualitative Content Analysis: Theoretical Foundation, Basic Procedures and Software Solution*. Klagenfurt.
11. Braun, V., & Clarke, V. (2006). Using Thematic Analysis in Psychology. *Qualitative Research in Psychology*, 3(2), 77-101.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №8(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.